

**«BOBURNOMA» MATNIDA SAMARQAND QAMALINI  
IFODALASHDA FOYDALANILGAN SAJ'LARNING INGLIZ TILIGA  
TARJIMALARI**

**Sherg'oziyev Shuhrat**

**Sheraliyevich**

**Namangan muhandislik-texnologiya instituti tayanch  
doktoranti**

**Annotation**

Maqolada Samarqand taxti uchun Bobur va Shayboniyxon o'rtasida qamal davrida bo'lib o'tgan jangda Bobur qo'shini holati tasvirlangan. Qamal davrida hech qayerdan yordam bo'lmagach qo'rg'ondagi lashkar va aholida noumidlik paydo bo'lishi va shaharni tashlab yashirincha qochishlari saj' orqali tasvirlangan. Shuningdek ushbu saj'lar ingliz tili tarjimalarida qanday aks ettirilgani o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** saj', matn tarjimasi, affiks, qo'rg'on, aholi, lashkar, son, pragmatika, yordam.

**Аннотация:**

В статье описывается состояние армии Бабура во время битвы Бабура с Шайбаниханом за трон Самарканда. Во время осады, когда помощи не было ниоткуда, через садж изображалось отчаяние армии и жителей крепости и их побег из города. Также изучается, как этот садж отражается в английских переводах.

**Ключевые слова:** садж, перевод текста, аффикс, крепость, население, армия, число, прагматика, помощь.

**Annotation**

The article describes the state of Babur's army during the battle between Babur and Shaybani Khan for the throne of Samarkand. During the siege, when there was no help from anywhere, the desperation of the army and the inhabitants of the fortress and their escape from the city was depicted through the saj. It also examines how this sajy is reflected in English translations.

**Key words:** saj, text translation, affix, fortress, population, army, numerals, pragmatics, help.

Tarixdan bizga ma'lumki Bobur va Shayboniyxon o'rtasida Samarqand taxti uchun bir necha bor qurolli to'qnashuvlar bo'lib o'tgan. Toq'nashuvlarning birida Samarqand qo'rg'oni Shayboniyxon tomonidan qamal qilinishi uzoq muddatga cho'ziladi. Bobur yaqin atrof va yiroqqa o'z ittifoqdoshlaridan yordam so'rab odam yuboradi. Biroq hech qayerdan yordam bo'lmagach qo'rg'ondagi lashkar va aholida noumidlik paydo bo'ladi. Bitta ikkita bo'lib qo'rg'onni tashlab chiqa boshlaydilar. Matnda hozirgi o'zbek tilidagi *-ta* affiks qo'shilishi bilan yasaladigan son bilan donalikni ifodalaydigan so'zlarni uchratishimiz mumkin. Bobur ijod qilib yashagan davrda - *ta* qo'shimchasi o'rinda - *ar*, *-rar* affikslari ishlatilgan. Mana shu yordam kelmagani va qo'rg'onni tashlab qochishlarni quyidagicha tariflaydi «*Zaxira va ozuq hech tarafdin kelmadi. Ko'mak va madad hech jonibdin yetishmadi. Sipoxiy va raiyat navmid bo'lub, birar- ikirar qurg'ondin tashlab qocha kirishtilar.*» [1.85]. Askarlar va aholiqo'rg'onni *bitta ikkita* bo'lib tashlab qochib ketishlarni *birar- ikirar* ko'rinishdagi saj'dan foydalangan holda ifodayladi.

Keltirilgan parcha Leyden-Erskin tarjimasida: *The blockade drawing out to a great length, provisions and supplies coming in or from no quarter, and no succours or reinforcements appearing on any hand, the soldiers and inhabitants at length began to lose all hope, went off by ones and twos, escaped from the city and deserted.* [2.156] (*Qamal uzoq cho'zildi, hechqayerdan oziq-ovqat va ta'minot kelmadi, hech qanday yordam yoki qo'shimcha kuchlar ko'rinmadi, askarlar va qo'rg'on aholisi oxirigi umidlarini yo'qota boshladi, bir-ikkita bo'lib shaharni tashlab qochib ketdilar.* MT) Leyden-Erskin parchada kelgan *birar-ikkirar* saj'ini *by ones and twos* ko'rinishda tarjima qiladi ya'ni *bitta ikkita* ma'nosida bo'lib. Ma'no jihatdan tarjima qilingan til o'quvchisi askarlar va aholini qo'rg'ondan birin ketin qochganlarini tushunib olishi mumkin. Bobur keltirgan asl matnidagi sa'j shakli esa tarjima qilish jarayonida aslini yo'qotgan.

A.Beverij tarjimasida: *The siege drew on to great length; no provisions and supplies came in from any quarter, no succour and reinforcement from any side. The soldiers and peasantry became hopeless and, by ones and twos, began to let themselves down outside the walls and flee. [3.146] (Qamal uzoq davom etdi; hech bir tomondan zahira va oziqa yordami kelmadi, hech qayerdan yordamchi kuch va qo'shinla kelmadi. Askarlar va dehqonlar umidsizlikga tushib, bir-ikkita bo'lib qo'rg'onni tashlab, qocha boshladilar MT.)* Beverij ham Leyden-Erskin kabi *birar-ikkirar* saj'ini o'z tarjimasida *by ones and twos* shaklida bergan. Bu holatda ham asl matnida kelgan saj' so'z tarjimada o'z hususiyatni yo'qotadi. To'g'ri Bobur qo'llagan aynan sa'jga to'liq mos tushadigan shaklni topish mushkul lekin talaffuzi jihatdan mos tushadigan so'zlardan foydalangan holda tarjimada aks ettirilganda bu o'quvchiga yanada jozibali va jarangli tasavvur uyg'otar mumkin edi.

Tekston tarjimasida: *The siege dragged on for a long time. No supplies or provisions were coming from any direction. No help or reinforcement arrived from any side. Soldier and civilian alike left the fortress in desperation one by one and two by two. [4.131] (Qamal uzoq vaqt davom etdi. Hech qaysi tomondan hech qanday ta'minot yoki ozuqa kelmadi. Hech bir tarafdin yordam yoki qo'shimcha kuch kelmadi. Askarlar va shahar aholisi ham ilojisiz bitta bittadan, ikkita ikkitadan bo'lib qal'adan chiqib ketishdi MT)* Tekston parchada keltirilgan *birar-ikkirar* saj'ini ingliz tiliga *one by one and two by two* shaklida tarjima qiladi. Avvalgi ikki tarjimondan farqli tarzda asl matnda qo'llanilgan saj' xususiyatlarni tarjimada ham saqlab qolishga erishgan. Leyden-erskin va Beverij tarjimlariga e'tibor bersak qa'ladan qochib chiqayotganlarni *by ones and twos – bir-ikkita* bo'lib chiqdilar deb beradi. O'quvchida qal'adan askar va aholi birin ketin huddi navbat bilan kelishilgan holda chiqib ketishlarini tushunishi mumkin aslida ham shundaymi? Boburnomadan bizga ma'lumki Samarqand aholisi Shayboniyhondan ko'ra Temuriylardan bo'lmish Boburmironi ko'proq olqishlaydilar uni Samarqandga kirib kelishiga hayrihoh edilar. Bobur janglardan va qamallardan charchagan va qiynalgan shahar aholisiga dondunlar

ulashadi va boshqa ko‘plab yordamlar ko‘rsatadi. Qamal davrida Bobur bilan birga unga yaqin bo‘lgan beklar, askarlar va shahar aholi bor edi. Zahira va ozuqa tugagach qamaldagilar orasida umidsizlikni paydo bo‘ldi lekin aksariyat bek va askarlar umidsizlikni oshkor etmay yashirincha bitta bitta va ikkit ikkita bo‘lib qo‘rg‘onni tashlab chiqa boshladilar. Manu shu holatni tasvirlashda Bobur *birar - ikirar* saj’idan foydalanganki bu o‘quvchi uchun yanada tushunarli bo‘lishi va qo‘rg‘ondan qochganlar pinhona shu harakatni amalga oshirganliklarini ifodalaydi. Bu holatni ingliz o‘quvchilariga yetkazib berishda Tekston tarjimasi yaqinroq bo‘lib tarjimon asl matnda kelgan *birar – ikirar* saj’lariga alohida e’tibor bergan va shunga mos ravishda ingliz tiliga *one by one and two by two* ko‘rinishda tarjima qilgan. Yana shuni aytish lozimki Beverij nima uchundir qo‘rg‘on aholisin *peasantry –dehqonlar* deb tarjima qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

Zahiriddin Muhammad Bobur. «Boburnoma» -Toshkent «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2002

Leyden J., W.Erskine. Memoirs of Zehired-din Muhammed Babur, Emperor of Hindustan.– Edinburg, 1826.

Beveridge A.S., The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur), Translated from the Original Turki Text of Zahiru’ddin Muhammad Babur Padshah Ghazi by Annette, Susannah Beveridge. 2 Vols, – London, 1922; Repr, in one Volume, – London, 1969; – New Delhi, 1970; – Lahore, 1975.

Khoshimova, D. M., & Inomiddinova, D. I. (2015). COMPARATIVE STUDYING THE WORLD OF ANIMALS IN" BABURNAME" BY ZM BABUR. Вестник современной науки, (9- 1), 97-99.

Khoshimova, D. (2022). THE TRANSLATION PROBLEMS OF LINGUOCULTURAL PECULIARITIES OF “BABURNAME”. Gospodarka i Innowacje., 24, 1067-1069.

Khoshimova, D. (2020). GENERAL AND CONDITIONAL PECULIARITIES OF DESCRIPTIVE MEANS IN" BABURNAME". The Scientific Heritage, (49-3), 50-51.

Khoshimova, D. (2019). The place of author's personal and interpersonal comparison means in translation of «Baburname». Sciences of Europe, (45-5 (45)), 46-48.

Axmadjonov Nurbek, Islomjonova Jasmina. Badiiy matnda allyuziv antroponimlarning xususiyatlari. Journal of advanced research and stability volume: 03 issue: 01 | jan - 2023 issn: 2181-2186

The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor, Translated, Edited, and, Annotated by Wheeler M., Thackston. – New York & Oxford, 1996